

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SHAHAR YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI TO'G'RISIDA

Shahar yo'lovchi tashish transporti xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada to'laroq qondirish, yagona transport siyosatini amalga oshirish va shahar yo'lovchi tashuvlari bozorini rivojlanterish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2000 — 2005-yillarda O'zbekiston Respublikasida shahar yo'lovchi tashish transportini rivojlanterish Konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi [1](#) va [2- ilovalarga](#) muvofiq ma'qullansin.

2. Mazkur Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi [3-ilovaga](#) muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Respublika komissiyasi:

"O'zavtotrans" korporatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "Toshshaharyo'lovchitrans" uyushmasi, tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda [2- ilovada](#) ko'rsatilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ishlab chiqilishini va amalga oshirilishini ta'minlasin;

ushbu qarorni bajarishning borishi to'g'risida har yili, yarim yillik va umuman yillik ish yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot berib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasida shahar yo'lovchi tashish transportini rivojlanterish Konsepsiyasi asosida shahar yo'lovchi tashish transporti tizimini isloh qilish va rivojlanterishning mintaqaviy kompleks dasturlarini uch oy muddatda ishlab chiqsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi L.A. Axmetov zimmasiga yuklansin.

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
1999-yil 26-noyabr,  
513-son

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-noyabrdagi 513-sonli qaroriga  
1-ILOVA

### 2000 — 2005-yillarda O'zbekiston Respublikasida shahar yo'lovchi tashish transportini rivojlanterish

#### KONSEPSIYASI

##### I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Bozor munosabatlariga o'tishda shahar yo'lovchi tashish transportining roli va ahamiyatining oshishi sanoat va aholining shaharlarga to'planishi jarayonlarining kuchayishi, yangi sanoat markazlarining shakllanishi, shaharlар infratuzilmasini kompleks rivojlanterishni, aholining jamoat transportidan keng foydalanishini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi.

1.2. Ushbu Konsepsiya shahar yo'lovchi tashish transportining iqtisodiy jihatdan foydali va ekologiya jihatidan toza turlarini kompleks rivojlanterish, aholini transport xizmatlari bilan ta'minlash sifatini oshirish, yo'lovchilar tashish xavfsizligini kuchaytirish, transportning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish, ushbu sozda bozor munosabatlarini keng rivojlanterish asosida respublika aholisiga transport xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslangan holda belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.3. Konsepsiya quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

mamlakat shahar yo'lovchi tashish transportining zamonaviy xalqaro talablarga va aholining o'sib borayotgan turmush darajasiga muvofiq bo'lgan tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish;

yo'lovchilar tashish sohasida bozor munosabatlarini, transport vositalariga mulkchilikning nodavlat shakllarini rivojlantirish;

transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish;

umumiyl foydalanishdagi shahar yo'lovchi tashish transportini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;

shahar yo'lovchi tashish transporti korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, foydalanish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydigan moliyaviy mexanizmlarni joriy etish;

shahar yo'lovchi tashish sohasiga investitsiyalarni, shu jumladan chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

shahar jamoat transportining harakatdagi turlarini yangilash va zamonaviylashtirish;

shahar yo'lovchi tashish transporti infratuzilmasini, eng avvalo, tuzatish bazasini rivojlantirish darajasini oshirish, uni harakatdagi tarkibga xizmat ko'rsatish va uni tuzatishning yangi texnika vositalari va texnologiyalari bilan ta'minlash;

shahar yo'lovchi tashish transporti tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash;

shahar yo'lovchi tashish transporti sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi, uning barqaror ishlashi va rivojlanishini ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

1.4. Ko'rsatib o'tilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda Konsepsiya 2005-yilgacha bo'lgan davrda shahar yo'lovchi tashish transportini rivojlantirishning, mulkchilik munosabatlarini yanada isloh qilish va transport xizmatlari ko'rsatish bozorida raqobat muhitini shakllantirishning, shahar yo'lovchi tashish transportini boshqarish tuzilmasi va tizimini takomillashtirishning, uning texnikaviy darajasini oshirish va moliyaviy ahvolini mustahkamlashning, xodimlar mehnatini rag'batlantirish hamda kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

1.5. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#), O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Hukumat qarorlariga, mamlakatning boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek shahar yo'lovchi tashish transporti hozirgi ahvolining tahlili natijalariga, ilmiy va prognoz ishlanmalariga asoslanadi.

1.6. Quyidagilar Konsepsianing boshlang'ich uslubiy tamoyillari bo'ldi:

mintaqalar bo'yicha shahar aholisining prognoz qilinayotgan soni;

respublika va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rtacha yaqin istiqbolga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari;

aholini joylashtirish sxemalarini va shaharsozlik sxemalarini shakllantirish yo'nalishlari; shaharsozlik me'yordi tizimi.

## **II. Shahar yo'lovchi tashish transportining mamlakat transport tizimidagi roli va o'rni**

2.1. O'zbekistonning yagona transport tizimida yo'lovchilar tashish umumiyl hajmining 59 foizi shahar yo'lovchi tashish transporti ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda shahar yo'lovchi tashish transportining barcha turlari ishlamoqda. Shahar yo'lovchi tashish transporti tuzilmasida jamoat transporti — avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar va metro ustuvor ahamiyatga ega ([1-ilova](#)).

Shahar yo'lovchi tashish transporti shoxobchalarining umumiyl uzunligi 8046,2 kilometrni, shu jumladan avtobus yo'nalishlari — 6982,2, tramvaylarniki — 267,0, trolleybuslarniki — 767,5 va metropoliten liniyalari — 29,5 kilometrni tashkil qiladi.

Jamoat transporti tomonidan bajarilayotgan shahar yo'lovchi tashuvlari umumiyl hajmidan 40,0 foizi "O'zavtotrans" korporatsiyasi, 1,6 foizi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va 58,4 foizi "Toshshaharyo'lovchitrans" uyushmasi korxonalari ulushiga to'g'ri keladi.

2.2. Shu bilan birga, aholining shaharlarda yo'lovchi tashuvlarga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilmayapti. Harakatdagi transportlar ortiqcha sig'im bilan ishlayapti. Sig'imdan foydalanish koefitsiyenti 1990-yillardiga nisbatan faqat Toshkent shahrining o'zidagina shahar avtobuslari bo'yicha 0,512 dan 1,013 gacha, metro vagonlari bo'yicha 1,34 dan 1,49 gacha ortdi.

Harakatdagi tarkibni yangilash, yo‘l qoplamalarini, tramvay yo‘llarini va tutashtirish tarmoqlarini yaxshilash, yer ustida ishlaydigan elektr transportning tortuvchi yordamchi stansiyalari quvvatini ko‘paytirish, transport korxonalarining tuzatish bazalarini texnikaviy rekonstruksiya qilish va qayta jihozlash zaruriyatni etildi.

Transport xizmatlari ko‘rsatish bozori, turli tashuvchilar o‘rtasida raqobat muhitini hali shakllangani yo‘q.

### **III. Shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirish istiqbollari**

#### **3.1. 2000 — 2005-yillarda shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirishning asosiy bosqichlari**

Shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirishning ushbu Konsepsiyasini asosan uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Yaqin istiqbol uchun (2000-yil) uchun mulkchilik munosabatlarini, shahar yo‘lovchi tashish transporti har xil turlari ishini boshqarish tuzilmasini va tartibga solib borish mexanizmini yanada takomillashtirishga, transport xizmatlari ko‘rsatish bozorida raqobat muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat beriladi. Buning uchun me’yoriy-huquqiy hujjatlarning tegishli paketini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Harakatdagi transportlar parkini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish boshlab yuboriladi, shahar yo‘lovchi tashish transportining yer ustida ishlaydigan turlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasi tayyorlangan. Metropolitenning Yunusobod liniyasi birinchi navbatini foydalanishga topshirish, vagon tuzatish zavodini rekonstruksiya qilishni tugallash va Sirg‘ali trolleybus zavodini ishga tushirish nazarda tutilmoqda.

Ikkinci bosqich (2001 — 2003-yillar)da asosiy e’tibor shahar yo‘lovchi tashish transportini yangilash va zamonaviylashtirish bo‘yicha investitsiya loyihamonlari ishlab chiqishga va amalga oshirishga qaratiladi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Germaniyaning KFW banki, Yaponiya transport vazirligi va “Merubeni Korporeyshn” firmasi bilan ishlar davom ettiriladi, harakatdagi transportlar parkini yangilash va to‘ldirish uchun Chexiyaning EGAP kredit liniyasi ishga solindi. Toshkent metropolitenining uchinchi liniyasi va Yunusobod deposi qurilishini tugallash, shuningdek metroning yangi “Sobir Rahimov — Sirg‘ali” liniyasini barpo etish loyihasini qabul qilish mo‘ljallangan.

Tramvay-trolleybus kompleksi infratuzilmasini zamonaviylashtirishni boshlash, avtobus parklari va deposining dastgoh va garaj asbob-uskunalarini yangilash, Qarshi va Guliston shaharlarida trolleybus liniyalarini foydalanishga topshirish nazarda tutilmoqda. Toshkent shahrining yer ustidagi shahar yo‘lovchi tashish transportini Avtomatlashtirilgan boshqarish markazini tajriba tariqasida foydalanishga topshirish mo‘ljallangan.

Uchinchi bosqich (2004-2005-yillar)da shahar yo‘lovchi tashish transportining harakatdagi tarkib parkini zamonaviylashtirish tugallanadi, metropolitenning to‘rtinchisi (Sobir Rahimov — Sirg‘ali) liniyasini qurish ishlari boshlanadi. Qo‘qon, Termiz, Navoiy shaharlarida trolleybus qatnovi rivojlantiriladi. Trolleybuslarni yig‘ish zavodi to‘la quvvat bilan ishlay boshlaydi. Toshkent shahrida yer ustida shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va respublikaning yirik shaharlari uchun ana shunday loyihalarni ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Shahar yo‘lovchi tashish jamoat transportining barcha korxonalarini kompyuterlashtirish, ularning dasturiy va muhandislik ta’minlanishi tugallanadi.

Shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirishning barcha uchchala bosqichining amalga oshirilishi natijasida 2005-yilda yo‘lovchi tashishlar 30,8 foizga ko‘payadi. Trolleybusda tashuvlar ustuvor darajada rivojlanadi, bu boradagi o‘sish 2,1 baravarni tashkil qiladi. Toshkent metropolitenidagi tashuvlar hajmi 1,4 baravar ortadi. Prognozga ko‘ra tashiladigan yo‘lovchilar soni Toshkent shahrida (29,9%), yirik va o‘rtacha shaharlarda (18 foizdan ziyod) eng yuqori sur’atlar bilan ko‘payadi. ([2-ilova](#)).

Transport turlari bo‘yicha tashuvlar tuzilmasida ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi. 2005-yilda tashiladigan yo‘lovchilar umumiy sonining 32,1 foizi (hozirgi vaqtida — 26%) yo‘lovchi tashish

transportining ekologiya jihatdan eng toza turlari (tramvay, trolleybus va metro) ulushiga to‘g‘ri keladi ([3-ilova](#)).

Yo‘nalishlar tarmog‘i yanada rivojlanadi. Uning uzunligini 2005-yilga borib 11,5 foizga, shu jumladan trolleybuslar bo‘yicha — 33,3 foizga, metropoliten bo‘yicha 40,3 foizga, avtobuslar bo‘yicha — 9,2 foizga va tramvaylar bo‘yicha 6,7 foizga ko‘paytirish mo‘ljallangan ([4-ilova](#)).

2005-yilda harakatdagi transport parkini 37,5 foizga, shu jumladan mikroavtobuslarni — 3,3 baravardan ziyodroq, trolleybuslarni — 1,9 baravar, yengil avtomobil taksilari va metro vagonlarini — 1,4 baravar, avtobuslarni — 20,5 foizga va tramvaylarni — 22,5 foizga ko‘paytirish mo‘ljallanmoqda ([5-ilova](#)). Harakatdagi transportlar parkini yangilash, kengaytirish va zamonusiyalashtirish maqsadida 2000-2005-yillar mobaynida 3460 ta avtobus va 660 ta trolleybus, 240 ta tramvay va 50 ta metro vagonlari sotib olish nazarda tutilmoqda ([6-ilova](#)).

2000 — 2005-yillar mobaynida 20 ta tortish yordamchi stansiyalarini qurish va zamonusiyalashtirish, 40,5 kilometr rels va 80,4 kilometr tutashtirish tarmoqlarini to‘liq tuzatish mo‘ljallangan.

### **3.2. Mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish. Shahar yo‘lovchi tashish transporti sohasida xususiyalashtirish va aksiyalashtirish chora-tadbirlari**

Konsepsiya qoidalarini amalga oshirishning birinchi bosqichidayoq shahar yo‘lovchi tashish transporti sohasida aniq mulkdorlarni shakllantirish keng chora-tadbirlari kompleksini ro‘yobga chiqarish nazarda tutilmoqda.

Shaharda yo‘lovchilarni mikroavtobuslar va yengil avtomobil taksilarida tashuvvlarni, qoidaga ko‘ra, xususiy transport vositalari egalari va xususiy korxonalar tomonidan amalga oshirish mo‘ljallangan.

Muntazam shahar yo‘nalishlari bo‘yicha avtobuslarda tashuvvlarni asosan ochiq turdagи aksiyadorlik jamiyatlari, xususiy korxonalar va xususiy transport vositalari egalari tomonidan amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Yo‘nalishlar tashuvchilar o‘rtasida tender asosida taqsimlanadi.

2005-yilgacha bo‘lgan davrda tramvay-trolleybus deposi va Toshkent metropoliteni, shuningdek ularning infratuzilmasi korxonalarini davlat mulkchiligidagi qoladi.

### **3.3. Transport xizmatlari ko‘rsatishning raqobat bozorini rivojlantirish**

Yo‘lovchi tashuvlari bozori mulkchilikning turli shakllaridagi tashuvchilar o‘rtasida raqobatni rivojlantirish asosida shakllantiriladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Quyidagilar transport xizmatlari ko‘rsatish bozorini shakllantirish va kengaytirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

sog‘lom raqobatni tashkil qilish, monopoliyachilar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish;  
transport xizmatlari ko‘rsatishdan foydalanuvchilar va transport xizmatlari ko‘rsatuvchi tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish;

mulkchilikning barcha shakllaridagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli avtobuslarni umumiy foydalanishdagi yo‘nalishlarga qo‘yish hamda ularning ishlash tartibi va shartlarini belgilash;

mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarini belgilab qo‘ylgan tariflar bo‘yicha ishlashga tanlov asosida jalb etish;

xususiy tashuvchilarining shahar jamoat transporti aksiyadorlik korxonalarini bilan o‘zaro muvaffaqiyatli ishlashi va hamkorlik qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

marketing tuzilmalarini shakllantirish, transport xizmatlari ko‘rsatish bozori rivojlanishining hozirgi ahvolini o‘rganish va uni prognozlash;

transport vositalarining texnik holati va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tashuvchilarga nisbatan talablarni kuchaytirish;

transport xodimlarining kasb-hunar darajasini nazorat qilish;

transportning texnika vositalariga va transport tadbirkorligiga nisbatan milliy talablarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan talablarga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirish.

Tender hujjatlarida mulkchilikning turli shakllaridagi tashuvchilarga nisbatan yagona talablar qo‘yilgan holda yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini joylashtirish bo‘yicha tenderlar ana shunday shart-sharoitlar yaratishning asosiy yo‘llaridan biri bo‘lib qoladi.

Xususiy transport vositalarini rivojlantirish va ularning egalarini rag‘batlantirish uchun har bir shaharda xususiy yo‘lovchi tashuvchilar uyushmalari tashkil etish mo‘ljallanmoqda.

### **3.4. Shahar yo‘lovchi tashish transportini davlat tomonidan tartibga solib borish va boshqarish tizimini takomillashtirish**

Shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida, “Shahar yo‘lovchi tashish transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi *Qonuniga* muvofiq, shaharlar hokimliklari huzurida shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organlari tashkil qilish nazarda tutilmoxda.

Toshkent shahrida “Toshshaharyo‘lovchitrans” davlat uyushmasi shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarishning yagona organi bo‘ladi.

Yo‘lovchi tashiydigan avtomobil va elektr transportiga ega bo‘lgan yirik shaharlarda hamda viloyatlar markazlarida shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organlari tashkil qilish va ularga “O‘zavtotrans” korporatsiyasi birlashmalari va konsernlarining hamda Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi korxonalarining yo‘lovchi tashuvchi bir qator xizmatlari shtatlarini hamda ish haqi fondini ularga berish mo‘ljallanmoqda.

Faqat avtomobilda yo‘lovchi tashish transportiga ega bo‘lgan o‘rtacha va kichik shaharlarda jamoat yo‘lovchi tashish transporti korxonalarining joylashgan joyini va bir-biridan uzoqligini hisobga olgan holda shunga o‘xshash boshqaruv organlari tashkil etish mo‘ljallanmoqda. Bunda mazkur boshqaruv organi bir viloyatning kichik va o‘rtacha shaharlari guruhi uchun tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Shahar yo‘lovchi tashish transporti hududiy boshqaruv organlari:

yo‘lovchilar oqimini o‘rganishga va uning asosida transportning har xil turlari uchun maqbul yo‘nalish tarmog‘ini ishlab chiqishga;

yo‘nalish hujjatlarini ishlab chiqishga va ularni davlat avtomobil nazorati organlari bilan kelishishga;

har bir yo‘nalishda qatnovlar jadvalini belgilashga va tashuvchilar tomonidan unga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlashga;

yo‘nalishlarni, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, tashuvchilar o‘rtasida tender asosida taqsimlashga;

yagona texnika siyosati o‘tkazishga va shaharda yo‘lovchi tashuvchi harakatlanadigan tarkibga qo‘yiladigan yagona tartiblarga rioda etilishini nazorat qilishga;

shahar yo‘lovchi tashish transporti subyektlari uchun yagona chipta tizimi joriy qilinishini ta’minlashga da‘vat etilgandir.

Shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organlari, hokimlik bilan tashuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shartnomaga asosida amalga oshiriladi. Shahar hokimligi shahar yo‘lovchi tashish transporti boshqaruv organlari bilan aholiga transport xizmati ko‘rsatishga shartnomaga (kontrakt) tuzishi, cheklangan tariflarni belgilashi, shuningdek yo‘lovchilar tashishning sifatli bajarilishi va tashuvchilar tomonidan tasdiqlangan tariflarga rioda qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishi nazarda tutiladi.

Shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organlari tashuvchilar bilan tashishlarning muayyan turini bajarish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan shartnomalar tuzadi.

Boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari sifatida:

O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tomonidan trolleybus depolari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaning “O‘zavtotrans” korporatsiyasi ixtiyoriga berilishi;

“O‘zavtotrans” davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi va “Toshshaharyo‘lovchitrans” davlat uyushmasi tomonidan transport vositalarining quvvati kattaroq avtokorxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan va kadrlar resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida ularda jamlanishi;

Toshkent shahar tramvay-trolleybus kompleksini metropoliten tajribasi bo'yicha yagona korxonaga integratsiyalash nazarda tutilmoqda. Bu ularga sarflanadigan xarajatlarni ancha qisqartirish imkonini beradi.

Shahar yo'lovchi tashish transporti faoliyatini davlat tomonidan boshqarishni transport xizmatlarini shakllantirish va bu xizmatlarni ko'rsatishga ruxsat berishni tartibga solish, litsenziyalash, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, tarif siyosatini, soliq solishni, markazlashtirilgan mablag' bilan ta'minlash, yagona ilmiy-texnika siyosati o'tkazish, tashishlarning xavfsizligini ta'minlash yo'li bilan amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida shahar yo'lovchi tashish transportini davlat tomonidan boshqarish Vazirlar Mahkamasi, joylardagi davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, "Toshshaharyo'lovchitrans" davlat uyushmasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **3.5. Shahar yo'lovchi tashish transportining ishlab chiqarish-texnika bazasini zamonaviylashtirish**

Harakatlanadigan transport parkini ko'paytirish, uning tarkibini o'zgartirishni mo'ljallah bilan birgalikda shahar yo'lovchi tashish transportining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va zamonaviylashtirish nazarda tutilmoqda.

Harakatlanadigan transportga servis xizmati ko'rsatish markazlari tashkil etishga alohida o'rin ajratiladi. "Mersedes-Bens" va "O'zavtoDEU" avtobuslariga, "Tatra" tramvaylariga xizmat ko'rsatish bo'yicha ilgari tashkil etilgan markazlar, shuningdek sotishdan oldin servis xizmati ko'rsatish va kafolatli xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik markazlar — "PAZavtotexmarkaz" va "ToshKochAvto" qo'shma korxonalari rivojlantiriladi.

Yaqin vaqt ichida "Shkoda" trolleybuslariga va "SamKochAvto" avtobuslariga servis xizmati ko'rsatish markazi tashkil etish nazarda tutilmoqda. "Shkoda" firmasi bilan shuningdek metro vagonlarini rekonstruksiya qilish markazi tashkil etish ham mo'ljallangan. Shu jumladan:

Toshkent shahrida (ATZ-10), Samarqandda (Samarqand tajriba-eksperimental mexanika zavodi), Qo'qonda (ATK-10) DEU avtomobil zavodining;

Toshkent viloyatida (Zangiota ATK), Samarqandda (A-K 2509), Andijonda (ATZ-6), Urganchda "Karosa" avtomobil zavodining servis va kafolatli xizmat ko'rsatish bo'yicha diler huquqlari berilgan texnik markazlarini tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda.

Barcha viloyat markazlarida va Nukus shahrida avtobuslarni tuzatish bo'yicha texnik markazlar filiallarini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

ATZ-2 aksiyadorlik jamiyat shahar avtobuslariga, "Remeltrans" aksiyadorlik jamiyatı tramvaylarga xizmat ko'rsatishga, trolleybuslar parkiga xizmat ko'rsatishga esa 2000-yilda foydalanishga topshirish mo'ljallangan Sirg'ali trolleybus zavodi ixtisoslashtiriladi.

2000-yilda SHTZ-9da Barnaul zavodi bilan birgalikda tormoz qoplamalari ishlab chiqarish sexi ishga tushiriladi. Avtoshinalarni tiklash bo'yicha mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, avtobus parkini suyultirilgan tabiiy gazga o'tkazishni tugallash, yonilg'inining muqobil turlarini izlash ishlarini davom ettirish nazarda tutilgan.

Respublikaning sanoat salohiyatidan foydalangan holda ehtiyyot qismlari, uzellar va agregatlar tayyorlash ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Eng yaqin vaqtdayoq respublika sanoat korxonalari tomonidan:

avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metro vagonlari uchun 350 nomda ehtiyyot qismlari;

40 nomda garaj asbob-uskunalar;

turli modellardagi avtomobilgarga 6 nomda ixtisoslashtirilgan kuzovlar tayyorlashni ta'minlash;

shuningdek xorijiy rusumdagagi avtomobilarning 1500 agregati va dvigatelini mukammal tuzatish-tiklash hamda "O'zDEUavto" va "SamKochAvto" avtomobilari dvigatellarini tuzatishni o'zlashtirish mo'ljallanmoqda.

Keyingi yillarda talab past bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlash bilan bir vaqtda ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini har yili 10 — 15 foizga yangilash mo'ljallanadi.

Metro vagonlari uchun o‘z kuchlari bilan tayyorlanayotgan ehtiyyot qismlarning asosiy turlarini 400 nomgacha, tramvay-trolleybus kompleksi bo‘yicha esa — 200 nomgacha yetkazish mo‘ljallangan.

Jamoat transporti uchun maxsus svetoforlarda ustuvor harakat qilishni va ayrim shox ko‘chalarda uning tez harakat qilishi uchun alohida yo‘lni nazarda tutuvchi yer usti transport vositalari harakatini avtomatlashtirilgan boshqarish ishlari davom ettiriladi. Foydalanish xizmatlari ishi transport chiqimlarini qisqartirishni, ularning bir-birini asossiz takrorlashini tugatishni va yo‘lovchilarni yetkazish vaqtini qisqartirishni nazarda tutuvchi harakat yo‘nalishlarini maqbullashtirishga yo‘naltiriladi. To‘xtab o‘tish manzillarini xususiyashtirish, ular tarmog‘ini oqilona joylashtirish, yo‘lkira kartochkalari va chiptalari sotish punktlarini rivojlantirish ishi davom ettiriladi.

Harakatlanadigan tarkibni tezkor aloqa vositalari bilan jihozlashga, yer usti jamoat transporti harakatini boshqarishning radio navigatsiyali avtomatlashtirilgan tizimini joriy etishga, markaziy dispatcherlik xizmatini, birinchi navbatda Toshkent shahrida va respublikaning yirik shaharlarda zamonaviylashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun Yaponiya, Avstraliya, Fransiya yoki Germaniyaning yirik xorijiy investorlarini jalg etgan holda maxsus investitsiya dasturlari tayyorlash mo‘ljallanmoqda.

Toshkent shahri markazi tramvay va trolleybus yo‘llaridan xoli qilinadi, ular shahar chekkasidagi sanoat zonasiga va aholi zich yashaydigan joylarga ko‘chiriladi.

### **3.6. Shahar yo‘lovchi tashish transportining moliyaviy ahvolini mustahkamlash chora-tadbirlari**

Shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish tizimini tarkibiy o‘zgartirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan boshqaruv aloqalarining yangi mexanizmini barpo etish, boshqarish va davlat tomonidan tartibga solish huquqlarini chegaralash, tashuvchilarining xo‘jalik mustaqilligini kuchaytirish avtobus va taksomotor parklari, tramvay va trolleybus depolarining ishlatish chiqimlarini o‘rtacha 12 — 15 foizga pasaytirish imkonini beradi.

Bozorga o‘tish sharoitlarida tashuvchilaring o‘z mablag‘lari kapital qo‘yilmalarni mablag‘ bilan ta‘minlashning asosiy manbaiga aylanayotganligini hisobga olgan holda transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tushumni qat’iyroq hisobga olish, yonilg‘i-energetika resurslari, ehtiyyot qismlar, avtoshinalar, uzellar, agregatlar, xomashyo va materiallardan tejab va ehtiyyotlab foydalanish chora-tadbirlari nazarda tutilmoqda.

Transport korxonalarini aksiyalarini sotish, shu jumladan xorijiy investorlarga sotish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari uchun haq to‘lash muddatlaridan kelib chiqib moslashuvchan tarif siyosatini qo‘llash daromad qismining oshishiga ko‘maklashadi. Oylik yo‘lkira kartochkalarini sotishda ixtiyoriy yakka tartibda sug‘urta tizimidan keng foydalaniladi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning qulayligi va sifatiga qarab tariflar darajasini belgilash ularni tabaqlashtirishning asosiy yo‘nalishiga aylanadi.

Transportning bir necha turlarida yurishga oylik yo‘lkira kartochkalarini sotishda tariflar va imtiyozlarni tartibga solish nazarda tutilmoqda. Metropolitenda 20, 40 va 60-marta yuriladigan magnit kartochkalari joriy etiladi. Yo‘lkira haqini oldindan to‘lash shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organlari ishida ustuvor yo‘nalishga aylanadi.

### **3.7. Shahar yo‘lovchi tashish transportini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari**

Aholi hayot faoliyatini ta‘minlashda shahar yo‘lovchi tashish transportining ahamiyatini, uni jadal rivojlantirish va parkni yangilash zarurligini hisobga olib unga davlat yordami ko‘rsatish nazarda tutilmoqda.

Shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirishga davlat investitsiyalari tanlab investitsiyalash tusiga ega bo‘ladi va birinchi navbatda transportning ishonchli va xavfsiz ishlashini ta‘minlashga, uning atrof muhitga zararli ta’sirini kamaytirishga yo‘naltiriladi.

Davlat tomonidan, budget mablag‘lari hisobiga shahar yo‘lovchi tashish transportining harakatlanadigan tarkibini to‘ldirish va yangilash, transport infratuzilmasini rivojlantirish, metropoliten liniyalari qurish, fuqarolarning ayrim toifalarini tashishda imtiyozlar berilishi munosabati bilan xarajatlarni qisman qoplash qo‘llab-quvvatlanadi.

Investitsiyalar hajmlarini kengaytirish uchun Shahar yo‘lovchi tashish transportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish mo‘ljallanmoqda, unga yetakchi sanoat korxonalari, xususiy tuzilmalar, tijorat tuzilmalari va boshqa homiylarning mablag‘lari jalb etilishi mumkin.

### **3.8. Shahar yo‘lovchi tashish transportining qonunchilik-huquqiy bazasini takomillashtirish**

Mazkur Konsepsiyada nazarda tutilgan qoidalar amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida qonunchilik-me’yoriy bazani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari mo‘ljallangan. Ushbu chora-tadbirlar “Shahar yo‘lovchi tashish transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonunini** amalga oshirish chora-tadbirlarini, “Fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli yurishi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagierni:

hokimlik bilan shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organi o‘rtasidagi shartnoma (kontrakt) hamda shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarish organi bilan tashuvchilar o‘rtasidagi shartnomaning namunaviy shartlarini;

muntazam ravishda shaharda yo‘lovchilar tashuvchilarni mablag‘ bilan ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni;

transport vositalari va tashuvchilar faoliyati ustidan inspektorlik nazoratini kuchaytirishni nazarda tutgan holda shahar yo‘lovchi tashish transporti tomonidan bajariladigan xizmatlarni sertifikatsiyalash tartibini tayyorlash nazarda tutilmoqda.

### **3.9. Kadrlar siyosati va ijtimoiy siyosat**

Quyidagilar kadrlar siyosati va ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

haydovchi kadrlar va metropoliten mashinistlarining, konduktorlar, tuzatuvchi ishchilar, o‘rta bo‘g‘in va dispatcherlik apparati mutaxassislarining doimiy kasb tayyorgarligini, ularning malaka darajasi o‘z vaqtida oshirilishini ta‘minlash;

o‘rta maxsus va kasb-hunar o‘quv yurtlari tarmoq tizimini mustahkamlash va rivojlantirish;

jamoat yo‘lovchi tashish transporti korxonalari bazasida yuqori sinflar o‘quvchilaridan transportning har xil turlari haydovchilarini tayyorlash bo‘yicha bolalar-o‘smirlar sport maktablari barpo etish;

transport vositalarini tuzatish va ularga xizmat ko‘rsatish ishlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish;

ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va turlarini kengaytirish hisobiga qo‘srimcha ish o‘rinlari yaratish;

shahar yo‘lovchi tashish transporti xodimlarini moddiy rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan birgalikda oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash hamda shahar yo‘lovchi tashish transportining rahbar xodimlari va mutaxassislarining malaka darajasini oshirish kompleks dasturini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

